XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2024 - yil 9 - yanvar VI-72-2-8-113-K/24 Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash haqida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Qiziriq tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig'i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i I.Abdullayevning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Qiziriq tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig'i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti va taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (I.Tilovmurodov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Abdullayev)ga:

tuman bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun **36,3 mln.so'm** hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun **306 so'm** bazaviy soliq stavkalari bo'yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) yuzasidan Surxondaryo televideniesi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish va televidenie orqali ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig'i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun, tuman hududida joylashgan

daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

elektr uzatish liniyalari, umumdavlat aloqa liniyalari, umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, elektr ta’minoti qurilmalari, magistral neft va gaz quvurlari hamda shunga o‘xshash inshootlar band etgan yerlar uchun tumanda o‘rtacha soliq stavkasi asosida soliq organi tomonidan belgilanishi va 5 yanvargacha soliq to‘lovchilarga yetkazilishini ta’minlash;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimligi axborot xizmati (A.Bo‘riyev), “Taraqqiyot” gazetasi (Ch.Alimov)ga mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Umbarov) zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman kengash raisi **Sh.A.Rajabov**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-72-2-8-113-K/24-son qaroriga
1-ilova

Qiziriq tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2024-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisentlar

T/R	Mahalla nomi	Yuridik shaxslarga		Jismoniy shaxslarga	
		2024 yil		2024 yil	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Bog‘bonlar yurti MFY	0,70	25 424 000	0,80	244,8
2	Bog‘iston MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
3	Buyuk kelajak MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
4	Gilambob MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
5	Gulzor MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
6	Gulobod MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
7	Do‘stlik MFY	1,00	36 320 000	0,80	244,8
8	Yetimqum MFY	0,70	25 424 000	0,72	220,3
9	Zarbdor MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
10	Zarobod MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
11	Zartepa MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
12	Istara MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
13	Istiqlol MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
14	Karmaki MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
15	Qishloqozon MFY	0,80	29 056 000	0,75	229,5
16	Qorasuv MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
17	Kunchiqish MFY	0,70	25 424 000	0,75	229,5
18	Mustaqillik MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
19	Navruz MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
20	Oqjar MFY	1,00	36 320 000	0,75	229,5
21	Rabotak MFY	1,00	36 320 000	0,80	244,8
22	Takiya MFY	0,70	25 424 000	0,72	220,3
23	Tinchlik MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2

24	Xalqobod MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
25	Xomkon MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
26	Shodlik MFY	0,90	32 688 000	0,75	229,5
27	Yakkaterak MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
28	Yangi turmush MFY	1,00	36 320 000	0,75	229,5
29	Yangi hayot MFY	0,70	25 424 000	0,70	214,2
30	Yangikent MFY	0,70	25 424 000	0,75	229,5
31	Yangiobod MFY	0,70	25 424 000	0,71	217,3